

УДК-913.1/913.8

Эрданов Мухаммади Нуралиевич

доцент кафедры географии

Терmezского государственного университета

Терmez, Узбекистан

Мустаев Курбанмурад Рахмон угли

магистр Терmezского государственного

университета

Терmez, Узбекистан

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОДНЫХ РЕСУРСОВ В СТРАНАХ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

«Я уверен, что нет другого разумного пути решения водной проблемы, кроме как учесть равные интересы стран и народов региона».

**Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев
Из выступления на 72-й сессии Генеральной Ассамблеи ООН**

Аннотация: В данной статье обсуждается проблема обеспечения людей чистой питьевой водой, а также водой, необходимой для сельского хозяйства, которая является актуальной проблемой не только в Узбекистане и Средней Азии, но и во всем мире, в некоторых странах Центральной Азии и в частности, Узбекистане особое внимание уделяется на решения данного вопроса с соседними странами.

Ключевые слова: Вода, трансгранична, Средняя Азия, Узбекистан, население, океан, море, озеро, климат, потребность, ООН, пустыни, аридный регион.

**Erdanov Muhammadi Nuralievich
Associate Professor of the Department of Geography
Termez State University
Termez, Uzbekistan
Mustaev Kurbanmurad Rahmon ugli**

**Master of Termez State
university
Termez, Uzbekistan**

USE OF TRANSBOUNDARY WATER RESOURCES IN CENTRAL ASIAN COUNTRIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS

"I am sure that there is no other reasonable way to solve the water problem, except to take into account the equal interests of the countries and peoples of the region."

President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev

From a speech at the 72nd session of the UN General Assembly

Annotation: This article discusses the problem of providing people with clean drinking water, as well as water necessary for agriculture, which is an urgent problem not only in Uzbekistan and Central Asia, but throughout the world, in some countries of Central Asia and in particular, Uzbekistan special attention is paid to solving this issue with neighboring countries.

Key words: Water, transboundary, Central Asia, Uzbekistan, population, ocean, sea, lake, climate, demand, UN, deserts, arid region.

Erdonov Muhammadi Nuraliyevich

Geografiya kafedrasi dotsenti

Termiz davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

Mustayev Qurbonmurod Rahmon o'g'li

Termiz davlat universiteti magistri

Termiz, O'zbekiston

**MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA TRANSCHEGARAVIY SUV
RESURSLARIDAN FOYDALANISH: MUAMMO VA YECHIMLAR**

“Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqasi mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q”. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqidan

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda nafaqat O‘zbekiston va Markaziy Osiyoda balki butun dunyoda dolzarb muammo bo‘lib turgan insonlarni toza ichimlik suvi bilan ta’minnish, shuningdek, dehqonchilik uchun zarur suv muammosining ba’zi bir Markaziy Osiyo, hususan, O‘zbekiston va unga yondosh mamalakatlarda yechish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Suv, transchegaraviy, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, aholi, ocean, dengiz, ko’l, iqlim, ehtiyoj, BMT, cho’llar, arid mintaqasi

Kirish. Yer yuzida hayot mavjudligining asosiy manbai ham suvdır. Ma’lumki, insoniyat, o’simlik va hayvonot olami, umuman, hech bir jonzot suvsiz yashay olmaydi. Yer sharining uchdan ikki qismi suv bilan qoplangan bo‘lsa-da, uning 97,45 foizi sho‘r suvlari bo‘lib, ishlatisha yaroqsizdir. Qolgan 2,55 foizi chuchuk suv resurslarini tashkil etib, uning 69 foizi muzliklar ko‘p yillik muzloq yerlar, 30 foizi yer osti suvlari, atigi 0,3 foizi esa daryo va ko‘llar hissasiga to‘g‘ri keladi[6, 19-b.].

Ma’lumotlarga qaraganda, dunyo aholisining har 10 nafardan 4 nafari toza ichimlik suvi yetishmaydigan hududlarda yashaydi. BMT ekspertlari tomonidan 2030 yilga borib Yer shari aholisi 8,6 milliardga, 2050 yilda esa 9,8 milliardga yetishi bashorat qilinmoqda. Tabiiyki, insoniyat ko‘paygan sari suvga bo‘lgan talab ortib boradi.

Asosiy qism. Okean va yirik dengizlardan ancha olisda, qurg‘oqchil mintaqada joylashgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham suvning ahamiyati benihoya katta. Global iqlim o‘zgarishlari sababli Tojikistondagi mavjud 8 mingdan ortiq muzliklar maydonining 30 foizi, Qirg‘izistondagi 10 mingga yaqin muzliklar maydonining 16 foizi erib ketgan. 2030 yilga borib muzliklarning yana 15–20 foizi yo‘qolib ketishi bashorat qilinmoqda. Shu bilan birga, so‘nggi paytlarda mintaqamizda suv kam bo‘lgan yillar soni tobora ko‘payib boryabti. Agar 2000 yillarga qadar har 6–8 yilda suv taqchilligi takrorlangan bo‘lsa, keyingi vaqtarda bunday holat har 3-4 yilda kuzatilyapti. Bundan ko‘rinadiki, suvning har tomchisidan oqilona va unumli foydalanish bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlarida, balki butun dunyoda eng dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Bunday suv tanqisligi Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida kuzatilmoqda. Shu bilan birga Suv resurslari mintaqa doirasida bir tekis taqsimlanmagan. Katta maydonlarini cho'l zonasi egallagan Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistondagi suv resurslarining asosiy manbayi qo'shni tog'li mamlakatlar Tojikiston hamda Qirg'iziston hisoblanadi. Bu hol esa qurg'oqchil hisoblangan mintaqa mamlakatlari zimmasiga suv resurslaridan oqilona foydalanish, barcha mamlakatlar manfaatlarini hisobga olgan holda suv boyliklarini to'g'ri taqsimlashdek dolzARB vazifani qo'yadi.

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) mutaxassislarining ma'lum qilishicha, qayta tiklanadigan suv manbalariga nisbatan eng yuqori suv iste'moli Yaqin Sharq mamlakatlari uchun odatiy hol.[13]


Bu borada ham Sobiq Ittifoq hududida yana Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchilar desak adashmaymiz. Masalan, foydalanilayotgan asriy suv resurslarining qayta tiklanadigan suv manbalariga nisbati

O'zbekiston	(115,7	foiz),
Turkmaniston	(99,59	foiz),
Tojikiston	(74,84	foiz),
Qirg'iziston	(42,37	foiz)da ancha yuqori bo'lsa, Belarus (4,81 foiz), Rossiya (1,46 foiz), Estoniya (1,23 foiz), Litva (1,07 foiz), Latviya (0,81 foiz) kabi Yevropa mamlakatlarida kichik ulushlarga teng. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki Dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotining 88 % ini ishlov beriladigan yerlar bermoqda

Mamlakatimizda foydalaniladigan suv resurslarining 80 foizga yaqini (taxminan 41,5 km³/yil) qo'shni respublikalar hududidagi muzliklar hisobiga shakllanadi(1-rasm)[9].

Shu kungacha dunyo miqyosida transchegaraviy¹ va mahalliy suv ob'ektlari suv resurslarini hisobga olish, ularni boshqarish va ulardan foydalanish bo'yicha mingdan ortiq turli me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida ish olib borilmoqda. Shulardan eng asosiyları Yevropa Hamjamiyatining "Xalqaro ko'llar va transchegaraviy suv arteriyalaridan

1-rasm. O'zbekiston foydalanadigan suv resurslari



¹ "transchegaraviy suv obyektlari" — ikki va undan ortiq davlatlar chegaralarini kesib o'tadigan yoki shunday chegaralarda joylashgan suv obyektlari[<https://lex.uz/docs/-12328?ONDATE=15.09.2017%2000>].

foydanish va muhofaza qilish Konvensiyasi”si (Xelsinki shahrida 1992 yili 17 martda qabul qilingan) va BMTning “Xalqaro suv oqimlaridan kema qatnovisiz foydanish huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya”si (Nyu-York shahrida 1997 yil 21 martda qabul qilingan) hisoblanadi. Ushbu konvensiyalarning asosiy tamoyillari - barcha davlatlarning manfaatlarini birdek hisobga olish, transchegaraviy suv resurslaridan adolatli va oqilona

Davlatlar	Havza nomi		Orol dengizi havzasi bo'yicha jami	
	Sirdaryo	Amudaryo	km.kub.	%
Qozog'iston	2,516	-	2,516	2,2
Qirg'isizton	27,542	1,654	29,196	25,2
Tojikiston	1,005	58,732	59,737	51,5
Turkmaniston	-	1,405	1,405	1,2
O'zbekiston	5,562	6,791	12,353	10,6
Afg'oniston va Eron	-	10,814	10,814	9,3
Orol dengizi bo'yicha jami	36,625	79,396	116,021	100


foydanish va qo'shni davlatlarga “zarar yetkazmaslik”dir.

O'zbekistonda foydalaniladigan suv resurslarining asosiy manbalarini Amudaryo, Sirdaryo va ularning irmoqlari tashkil etadi. Orol dengizi havzasidagi barcha daryolarning o'rtacha ko'p yillik suv oqimi hajmi yiliga $116,02 \text{ km}^3$ bo'lib (1-jadval), shundan $79,4 \text{ km}^3$ Amudaryo havzasida (67,4%) va $36,6 \text{ km}^3$ (32,6%) Sirdaryo havzasida shakllanadi.

1-jadval. Orol dengizi havzasining yer usti suv resurslari (o'rtacha yillik oqim, km³)

Ushbu zaxiralarning deyarli barchasi mamlakatlar tomonidan turli xil ehtiyojlar uchun foydanishga olingan. Daryo havzasidagi har bir mamlakat foydanish uchun suv olishning kelishilgan ulushi (limiti)ga ega. Masalan, “Amudaryo va Sirdaryo daryolarining o'tgan asrning 80-yillarda ishlab chiqilgan havzaviy sxemalarida har bir mamlakatning ulushi, belgilangan suvni olish miqdori hanuzgacha mintaqaning barcha respublikalari tomonidan tan olinadi”(2-rasm).

2-rasm. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida mamlakatlarning suv olish limiti[10].



Orol dengizi havzasining asosiy daryolaridan Oʻzbekistonning suv olish ulushi mintaqada hosil boʻlgan jami suv resurslarining 49 foizini tashkil qiladi. Soʼnggi yillarda Oʻzbekistonda foydalaniладиган suv resurslarining yillik hajmi oʼrtacha 51–53 km³ ni tashkil etmoqda. Bu umumiy oлинган suv hajmining jiddiy tarzda qisqarganidan dalolatdir (20%). Ayni holat iqlim oʼzgarishi taʼsiri ostida, shuningdek, transchegaraviy suvdan foydalanish muammolari tufayli daryo suvlarining kamayib ketganligi bilan bogʼliq.

Mintaqada ishlatilayotgan jami suv resurslarining oʼrtacha 90 foizi qishloq xoʼjaligida, 4,5 foizi kommunal-maishiy xoʼjalik sohasida, 1,4 foizi sanoatda, 1,2 foizi baliqchilikda, 0,6 foizi issiqlik energetikasida, 2,3 foizi esa iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida foydalanilgan.

Global iqlim oʼzgarishi natijasida Markaziy Osiyoda soʼnggi 50-60 yil davomida muzliklar maydoni taxminan 30 foizga qisqargan. Taxminlarga koʼra, harorat 2 °C ga ortganda muzliklar hajmi 50 foizga, 4 °C ga isiganda esa 78 foizga kamayadi. Hisob-kitoblarga koʼra, 2050-yilgacha Sirdaryo havzasida suv resursi 5 foizga, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Tahlillar iqlim oʼzgarishi mintaqada suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018-yillardagi kabi qurgʼoqchilikning davomiyligi va davriyiliги koʼpayishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga boʼlgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini koʼrsatmoqda. Shuningdek, mintaqada aholi sonining koʼpayishi communal sohani yildan yilga suvga boʼlgan talabini ortishiga olib keladi. Oqibatda, soʼnggi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv taʼminoti 3,5 marta qisqardi.

Mintaqada suv ta'minoti bilan bog'liq mavjud vaziyat asosan quyidagi muammolar va keskinliklar bilan xarakterlanadi:

- suv resurslari cheklangan va o'ta notekis tarqalgan;
- iqlimning o'zgarishi ta'sirlari, muzliklar zaxirasining kamayib borishi va suv resurslarining kutilayotgan 10-15% kamayishi, favqulodda vaziyatlari sonining ortishi;
- yer-suv resurslari degradatsiyasi, ekotizimlarning buzilishi, cho'llashish, suv resurslari ifloslanishi va bioxilma-xillikni yo'qolishi jarayonlari;
- Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi aholi sonining tez o'sishi;
- mintaqada iqtisodiy jarayonlarning intensivlashishi, suv resurslari taqchilligining ortishi (kishi boshiga suv bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi 3,5 marta kamaydi, bugungi kunga kelib suvga bo'lgan qo'shimcha talab 700-800 mln.m³/yil ni tashkil etadi);
- suv resurslariga bo'layotgan tabiiy va antropogen ta'sirlar ostida tabiat va jamiyat o'rtaida suvga bo'lgan talabdagи tafovutlar ortib bormoqda;
- umumiy suv resurslarini hamkorlikda boshqarish, ulardan birgalikda foydalanish suvdan foydalanish bilan bog'lik (transchegaraviy) masalalarda keskinliklar mavjud.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida mamlakatlar o'rtaida ikki tomonlama Ishchi guruhlar tuzilib, kelishuvlarga erishilmoqda. Shuningdek, Markaziy Osiyoning Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtiruvchi Komissiyasi(1992-yildan) doirasida ham hamkorlik amalga oshirilayapti.

Mintaqaning transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish sohasida davlatlararo hamkorlikni takomillashtirish va yanada rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

Markaziy Osiyo mamlakatlari manfaatlari o'rtaida muvozanatni ta'minlaydigan transchegaraviy suv resurslarini birgalikda boshqarishning o'zaro maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish;

transchegaraviy suvlar bo'yicha BMT konvensiyalari normalari va tamoyillarini ilgari surish;

amaldagi qonuniy kelishuvlar, shu jumladan, Sirdaryo, Amudaryo va boshqa transchegaraviy daryolar miqyosida suv o'lchashni takomillashtirish dasturini amalga oshirish uchun qo'shma monitoring olib borish va ochiq ma'lumotlar almashish mexanizmini yaratish;

mintaqa mamlakatlari o‘rtasida suvdan foydalanish bo‘yicha axborot almashinuvini doimiy ravishda yo‘lga qo‘yish;

mintaqa davlatlari tomonidan umummanfaatlarni inobatga olgan holda yirik gidrotexnika inshootlarini qurish bo‘yicha yagona pozitsiya ishlab chiqishni ilgari surish;

mintaqaviy suv resurslarini boshqarish bo‘yicha qo‘shma rejalarini ishlab chiqish va istiqboldagi vazifalarni belgilash, shu jumladan, iqlim o‘zgarishiga moslashish choralarini ko‘rish va o‘zaro manfaatlarni ifoda etuvchi sohalarda tajriba almashish.

Umuman transchegaraviy suv resurslaridan foydalanuvchi davlatlar o‘rtasida qaramaqarshiliklar bo‘lishi tabiiy. Zero ayrim hollarda umumi suv resurslaridan foydalanuvchi xalqlar manfaatlari ayrim zid kelishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bunday sharoitlarda suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘li yo‘q. O‘zbekiston rahbarining BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi bayonotida ilgari surilgan tashabbus va takliflar jahon shu jumladan mintaqa hamjamiyatining diqqat markazida turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Qonuni" №837-XII, 06.05.1993

2. **O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.** <https://lex.uz/docs/-12328?ONDATE=15.09.2017%2000>

3. Xamrayev Sh.R. va boshqalar. Suv, tinchlik va xavfsizlik muammolarining chambarchas bog‘liqligi Journal of “Irrigation and melioration” №3(9).2017. 5-10 b.

4. Suv xo‘jaligi Hisobot beradi 2018 – 2019 yillar sarhisobi. Materiallarni to‘plovchilar: O. Norbekov, A. Hayitov. - Toshkent: Baktria press, 2020, - 108 b.

5. Шулц В.Л., Машрапов Р. Ўрта Осиё гидрографияси, Тошкент, 1969. – 327 б.

6. Yunusov G‘.X., Ziyayev R.R. Umumi hidrologiya va iqlimshunoslik. O‘quv qu‘llanma. «Barkamol fayz media» nashriyoti, 2018-yil.

7. Марказий Осиё ва қўши миңтақалардаги трансчегаравий ҳудудлар: ҳамкорлик имкониятлари ва муаммолари. I қисм. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари (Самарқанд, 2022 йил 5-6 май). – Самарқанд, 2022. – 237 б.

8. Nuralievich E. M., Rahmonovich M. Q. The Importance of Water Resources in the Development of Agriculture in Surkhandarya Region and Issues of their Effective Use //International Journal of Culture and Modernity. – 2021. – T. 9. – C. 67-72.

9. Birlashgan Millatlar Tashkiloti yangilangan umumiyl mamlakat tahlili: O'zbekiston. Toshkent – 2021 yil. <https://uzbekistan.un.org/en/download/68186/126438>

10. Махмудов О. Сув ресурсларидан тежамли фойдаланиш ҳаётий зарурият // Ўзбекистон овози, 2013 йил 28 март.

11. www.water.gov.uz Suv xo'jaligi vazirligi rasmiy sayti.

12. <http://sic.icwc-aral.uz> Markaziy Osiyo davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv komissiyasi rasmiy sayti

13. https://daryo.uz/2020/11/28/markaziy-osiyo-mamlakatlari-sugorish-uchun-suvdan-eng-kop-foydalanadigan-davlatlar-qatoridan-joy-oldi/?fb_comment_id=4076102232419251_4076784279017713